

UMID BEKMUHAMMADNING “QISHLOQ HAYOTI” GAZETASIDAGI TARIXIY, PUBLISISTIK IJODIY FAOLIYATI

Gulzoda Bobonazarova Alisherovna,
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Umid Bekmuhammadning jurnalist sifatida “Qishloq hayoti” gazetasidagi ijodiy faoliyati tahlil etiladi. Gazetadagi Qoraqalpog‘iston va Xorazm hududlaridan tayyorlangan tarixiy, publisistik maqolalarining matbuot tarixida tutgan o‘rni, ularning ilmiy ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: gazeta, Xorazm, Toshkent, Qoraqalpog‘iston, matbuot, tarix, publisistika, ijod, vaqt, davr.

Аннотация. В данной статье анализируется творческая деятельность Умиды Бекмухаммада как журналиста в газете “Сельская жизнь”. Подчеркивается место историко-журналистских статей, подготовленных в газете из регионов Каракалпакстана и Хорезма, в истории прессы, их научное значение.

Ключевые слова: газета, Хорезм, Ташкент, Каракалпакстан, пресса, история, журналистика, творчество, время, эпоха.

Abstract. This article analyzes the creative activity of Umid Bekmukhammad as a journalist at the newspaper “Qishloq Hayoti” (“Rural Life”). The historical and publicistic articles prepared from the Karakalpakstan and Khorezm regions published in the newspaper are examined in terms of their place in the history of the press, and their scholarly significance is elucidated.

Keywords: newspaper, Khorezm, Tashkent, Karakalpakstan, press, history, publicism, creativity, time, period.

Kirish. Mutaxassisligi tarixchi bo‘lgan Umid Bekmuhammad mehnat faoliyatining ma‘lum bir yillari matbuot bilan bog‘liq. Ya‘ni, 2002-2003-yillari “Gurlan hayoti” gazetasi bo‘lim mudiri, 2003-2004-yillari “Qishloq hayoti” gazetasining Xorazm viloyati bo‘yicha muxbiri, 2004-yil yanvar-avgust oylarida Qoraqalpog‘istondagi “Hamroz” gazetasi muxbiri, 2004-2005-yillari esa Qozog‘istondagi “Adabiyot va san‘at” gazetasi, “Kamalak”, “Boychechak” jurnallari bo‘lim mudiri sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Ya‘ni, turli hudud, turlicha nomdagi nashrlarda uch yillik jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullangan.

Ana shu uch yil ichida “Qishloq hayoti” gazetasidagi bir yillik faoliyati alohida ajralib turadi va qisqa muddat ichida Umid Bekmuhammadning 120 ta maqolasi ana shu nashrda chop etilgan. Ma‘lumki, “Qishloq hayoti” respublika agrosanoat kompleksi, qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi muassisligida nashr etilgan respublika gazetasi bo‘lib, faqat agrar sohani emas, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jarayonlarni ham yoritib borgan. Gazetaga 1980-yillarning oxiri 1990-yillar boshida sobiq ittifoq xalq deputati sifatida o‘z davrining mashhur jurnalisti Ahmadjon Muxtorov bosh muharrirlik qilgan. Umid Bekmuhammad ushbu gazetada faoliyat ko‘rsatgan davrda esa bosh muharrir O‘tkir Rahmatov bo‘lib, oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi vazifasida faoliyat ko‘rsatgan nufuzli shaxs va taniqli shoir edi. Qolaversa bu yillari jamoada yana Habib Temirov, Sunnat Saydaliyev, Dilmurod Qirg‘izboyev, Rustam Jabborov singari taniqli jurnalistlar ham mehnat qilishar, har bir viloyatda gazetaning

muxbirlari bo‘lib, ular haftada uch marta nashr etiladigan gazetaga maqolalar tayyorlashardi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni yoritishda bevosita “Qishloq hayoti” gazetasining 2002-2004-yillardagi taxlamlari va ulardagi Umid Bekmuhammadning maqolalari tahlil etildi. Maqolalarni shu sonda chop etilgan boshqa maqolalarga taqqoslab, Umid Bekmuhammad maqolalarining ahamiyati, oradan yillar o‘tib ham vaqt sinoviga dosh berib o‘zining ilmiy ahamiyatini yo‘qotmaganligi aniqlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida maqolada tahliliy va qiyosiy usullardan foydalanildi. Muallifning “Qishloq hayoti” gazetasida chop etilgan maqolalari boshqa davriy nashrlardagi materiallar bilan solishtirilib, ularning mavzu doirasi, uslubi va ilmiy ahamiyati o‘rganildi. Shuningdek, tarixiylik, xolislik va manbaviylik tamoyillariga tayangan holda umumlashtiruvchi xulosalar chiqarildi.

Tahlillar va natijalar. Umid Bekmuhammad tuman gazetasidagi faoliyati bilan birga, “Hurriyat”, “Mohiyat”, “Darakchi” gazetalarida ham publisistik, tarixiy mavzularda maqolalar chop etdirgan va respublika darajasida ham uning muxlislari paydo bo‘lgandi. Ana shunday ijodiy faoliyat davom etayotgan 2002-yil sentyabrida uni bosh muharrir O‘tkir Rahmatov “Qishloq hayoti” gazetasiga ishga taklif qiladi. Bosh muharrir, o‘rinbosarlari Sunnat Saidaliyev, Habib Temirovlar bilan suhbatdan so‘ng uni uch oylik sinov sharti bilan ishga qabul qilishadi. 2003-yil yanvaridan esa “Qishloq hayoti” gazetasining muxbiri vazifasiga tayinlanadi va bu faoliyat bir yil davom etadi. Uch oylik sinov davri bilan qo‘shib hisoblaganda mazkur nashrdagi ijodiy faoliyat davomida muallifning 120 ta maqolasi nashr etiladi. Faoliyat sarhisobi shundaki, 2004-yil yanvarida gazeta tashkil etgan respublika miqyosidagi “O‘zing mening ulug‘lardan ulug‘imsan” tanlovida esa O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinovlar bilan birga tanlov g‘olibligiga erishadi.

Umid Bekmuhammadning qisqa, ammo sermahsul ana shu bir yillik faoliyati davomidagi maqolalarni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

- a) Publisistik maqolalar;
- b) Tarixiy maqolalar;
- v) Ma’naviy-ma’rifiy maqolalar;
- g) Hayotiy lavhalar;

Ma’lumki, o‘sha yillari sobiq ittifoq paytida tashkil etilgan jamoa xo‘jaliklari shirkat xo‘jaliklari tarzida faoliyat ko‘rsatar, hali to‘liq fermer xo‘jaligi tizimiga o‘tilmagan davrlar edi. Ya’ni, “Osmonda xudo, yerda rais” nomli xalq maqolidagidek raislar tumanlarda nufuzli shaxs maqomida edi. Garchi gazeta “Qishloq hayoti” deb atalsada, Umid Bekmuhammad o‘sha yillari Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlaridan bironta rais, yoki tuman rahbariyatini maqtagan, madhiyabozlik qilgan maqola yozmaganini ko‘rish mumkin. Aksincha raislarning aholiga bepisand munosabati, yerga egasizlik, talon tarojlik davom etayotganini tanqid qilgan maqolalar yozgan.

Hozirda oradan yillar o'tib ham ana shu maqolalar bir to'plam hoida nashr etilsa, ularning ilmiy ahamiyati yo'qolmagani, matbuot tarixidan chuqur joy olganini anglash mumkin. Umid Bekmuhammad garchi 2004-yilda "Qishloq hayoti" gazetasidan boshqa nashrga ishga o'tgan bo'lsada, "Hayot" haftalik ilova nashrida ham yillar davomida tarixiy, adabiy mavzudagi maqolalari bilan qatnashib kelgan.

Tarixiy mavzudagi maqolalarga quyidagi singari ko'plab maqolalarni qayd etish mumkin "Qilich Niyozboy kim bo'lgan" ("Qishloq hayoti 2002-yil 7-noyabr), "O'tmishdagi raislar" ("Qishloq hayoti" 2002-yil 12-noyabr), "Xiva xonligi bozorlari" ("Qishloq hayoti" 2002-yil 21-noyabr), "Xorazmlik nemislar" ("Qishloq hayoti" 2002-yil 20 dekabr), "Minoralar tarix guvohi" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 28-yanvar), "Alloma ibрати" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 24-aprel), "Beruniyning aql mash'ali" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 22-avgust), "Ibn Sino va Notiliy" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 14-oktyabr), "Umar Chag'miniy" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 11-dekabr), "Ayg'oqchiga maosh berishganmi?" ("Qishloq hayoti" 2006-yil 4-iyul), "Ibn Sino o'zini o'zi davolay olmaganmi?" ("Hayot" gazetasi, 2006-yil 14-sentyabr), "Navoiyning farzandi bo'lganmi?" ("Hayot" gazetasi 2007-yil 22-fevral).

Muallif tarixiy mavzudagi maqolalarida Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Chag'miniy, A.Navoiy, Ogahiy, Xudoybergan Devonov, Madrahim Sheroziy, Komiljon Otaniyozov, S.P.Tolstov, Ya.G'ulomov, singari shaxslarning hayoti, faoliyatini, shuningdek Xorazmda yashagan nemislar, xonlik davri bozorlari, savdo tizimi, umuman o'tmishdagi jarayonlarni publisistik uslubda yoritib berish orqali keng gazetxonlar ommasiga targ'ib qiladi. Ya'ni, o'sha davrda obunachilari asosan agrar soha, bank, boshqaruv tizimi vakillari bo'lgan qatlamlarga tarixiy ma'lumotlar taqdim qilib, ularda o'tmishga bo'lgan tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi. Tabiiyki, mutaxassisligi tarixchi bo'lgan muallif moziydagi jarayonlarni, shaxslar faoliyatini ilmiy manbalarga suyanan, xolislik va haqqoniylik tamoyiliga amal qilgan holda, publisistik uslubda yoritib beradi.

Ma'naviy ma'rifiy maqolalar turkumiga esa quyidagilarni qayd etish mumkin: "Ayol sadoqati" ("Qishloq hayoti" 2002-yil 27-dekabr), "Teran ildizlar" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 1-yanvar), "Qishlog'ingizda muzey bormi?" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 27-mart), "Miroblar maskani" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 22-aprel), "Naqshlarga bitilgan umr" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 12-iyun), "Xonqalik xalfalar" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 17-iyun), "Amerikada yurib Nukusni sog'indim" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 9-oktyabr), "Fan istiqbolga chorlaydi" ("Qishloq hayoti 2004-yil 16-mart), "Saviskiyini hayratlantirgan qoraqalpoqlar" ("Qishloq hayoti 2003-yil 11-iyul), "Fransuzlar qoraqalpoqcha so'zlashadi" ("Qishloq hayoti" 2003-yil 12-avgust). Bu turkumda esa jamiyatdagi ma'naviy, ma'rifiy sohalarida kechgan jarayonlarni sinchkovlik bilan kuzatadi va e'tiborni muzey, ta'lim, san'at yo'nalishlaridagi yutuqlar, ayrim muammolarga qaratadi. Tabiiyki, Xorazm, Qoraqalpog'istonga oid bu maqolalar "Qishloq hayoti" gazetasi orqali respublikaning boshqa viloyatlaridagi jarayonlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Publisistik maqolalar turkumiga “Gurlanning grechkasi” (“Qishloq hayoti” 2002-yil 25-oktyabr), “Rahbarlik uyg‘oqlikdir” (“Qishloq hayoti” 2002-yil 17-dekabr), “Barchaga bog‘liq ish” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 21-yanvar), “Egarsiz yashash qiyinmi?” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 6-fevral), “Xorazm qovunlarining dovrug‘i tiklanadimi?”, “SFU dehqon suyanchimi?” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 26-iyun), (“Qishloq hayoti” 2003-yil 29-iyul), “Murabbiylar mashg‘ulot o‘tkazayaptimi?” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 10-iyul), “Istiqbolga oshinch so‘nmasin” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 4-sentyabr), “Ta‘lim hayotdan uzilmasin” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 15-avgust, “Har giyohning o‘z o‘rni bor” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 21-avgust), “Argentina o‘rdaklari Mo‘ynoqda” (“Qishloq hayoti 2003-yil 9-oktyabr).

Ushbu turkumda esa nafaqat qishloqlardagi egasizlik, jamoa xo‘jaliklaridagi talon tarojlik, mahallalardagi vaziyat, suv xo‘jaligi, sport, mahallalardagi noqonuniy holatlarni tanqid qiladi va yechim sifatida takliflar beradi.

Aynan publisistikdagi maqolalarda jamiyatdagi muammolar yoritilgani uchun bevosita o‘sha maqolalardan ayrim iqtiboslar keltirish o‘rinli deb bilamiz. Mana e‘tibor qarating:

“... ba‘zi qishloq va mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi tanish-bilish hamda qarindosh-urug‘lariga moddiy yordam yozish, bitta uyda farzandlar ota—onasi bag‘rida yashashsa-da, ammo fuqarolar yig‘inlarida alohida-alohida yashayotgan oila deb qayd qilinib, ularning har biriga qo‘shimcha tomorqa berish, o‘tkazilmagan ijtimoiy-ma‘rifiy tadbirlarni “O‘tkazilgan tadbirlar” daftariga yolg‘ondakam qayd qilish, mahallalardagi sport-sog‘lomlashtirish ishlarining o‘lda-jo‘lda yo‘lga qo‘yilishi, ayrimlarning to‘yu ma‘rakalarini ortiqcha dabdaba bilan o‘tkazishlarini ko‘ra bila turib, e‘tibor bermaslik, loqaydlik kabi salbiy illatlarga aynan bu yil barham berishga intilib, bu borada barchamiz hamjihat bo‘lsakgina, ayni muddao bo‘lar edi...” (“Barchaga bog‘liq ish” maqolasidan “Qishloq hayoti” 2003-yil 21-yanvar).

“... Aksariyat joylarda sport murabbiylari nomigagina tashkil qilingan bo‘lsa,ba‘zi xo‘jaliklarda umuman sportga aloqasi bo‘lmagan kishilar murabbiylik qilishayapti.

Shunday sharoitda qishloqlardagi sport murabbiylari zamon talabi asosida ishlay oladilarmi?Balki ularning ishini yangicha yo‘nalishda tashkil qilish kerakdir? Sport murabbiylarini shirkat xo‘jaligiga emas, tuman bolalar sporti bo‘yicha mutaxassisiga bo‘ysunadigan vazifaga aylantirish lozimdir?

Zero, maktabdagi o‘quv mashg‘ulotlari tugab, yozgi ta‘til davrida qishloqlardagi sport murabbiylarining ishi ayni qizg‘in bo‘ladigan palla.Ammo murabbiylar hamon xo‘jalik yumushlari bilan band.Demak, ularning ishini yangi yo‘sinda tashkil etmoq vaqti keldi ..” (“Murabbiylar mashg‘ulot o‘tkazayaptimi?” maqolasidan. “Qishloq hayoti” 2003-yil 10-iyul).

Bu singari publisistik mavzudagi maqolalardan yana ko‘plab iqtiboslar keltirish mumkin.

“Hayotiy lavhalar” turkumida esa muallif insonlar fe’lu atvoridagi nuqsonlar, madhiyabozlik, rahbarlarning o‘zboshimchaligi, talon tarojlikni badiiy uslubda yoritib berishga harakat qilgan. Mavzularning dolzarbligiga qarab, bu turkumni bimalol “Kichik lavhalardagi katta dardlar” deya atash mumkin.

“Mansabingdan yoshim katta”, “Mo‘ridan tutun chiqsa” (“Qishloq hayoti” 2002-yil 12-noyabr), “Shiferni qarg‘ish uchirdi “ (“Qishloq hayoti” 2002-yil 26-noyabr), “Rais aytayam o‘rma” (“Qishloq hayoti” 2003-yil 7-iyun) va boshqa lavhalar aynan shu turkumga oiddir. Ushbu turkumda ham muallif o‘zi kuzatgan voqeliklarni insonlarning hatti harakati, fe’lu atvori asosida yoritib beradi.

Har to‘rttala turkumda ham maqolalarga qo‘yilgan sarlavhalar e’tiborni tortish bilan birga, birinchi satrdagi voqeani tasvirlash, o‘quvchining diqqatini jalb qiladi. Shuningdek yozish uslubi, jumlar tuzilishi, noo‘rin so‘z ishlatmaslik maqolalarning ravon o‘qilishi, muallifning ijodiy mahoratini aks etdiradi.

Umid Bekmuhammad “Qishloq hayoti” gazetasida maqolalar chop etdirgan va faoliyat ko‘rsatgan 2002-2004-yillarda nashrning adadi 18 mingdan 32 mingga bo‘lgani qayd etilgan. Qolaversa ushbu nashr respublika boshqaruv idoralari, qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, uning viloyat va tuman tuzilmalariga, viloyat va tuman hokimliklari, Agrobank, jamoa va fermer xo‘jaliklariga obuna orqali yetkazib berilgan. Ya’ni Andijondan Qoraqalpog‘istongacha bo‘lgan hududda “Qishloq hayoti” va uning ilova nashri “Hayot” gazetasining obunachilari va maqolalarning e’tiborliliigi bois sevib o‘qiydigan muxlislari bo‘lgan. Buni ta’kidlayotganimiz shundaki, ana shu miqyosdagi gazetxonlar ommasiga Umid Bekmuhammad maqolalari yetib bordi va ko‘plab muxlislar muallifning xuddi “Darakchi”, “Hurriyat” nashrlaridagi singari chiqishlarini sevib mutoaala qiladigan bo‘lishdi. Bularning bari esa tarixchi va publisistni respublika darajasidagi jurnalist sifatida tanilishiga ham sababchi bo‘ldi. Qolaversa gazeta tahrir hay’atida o‘sha vaqtlari Ozod Sharafiddinov, Said Ahmad, Habib Temirov singari ijodkorlar, olimlar ham bo‘lib, ular gazetaning har bir soni, undagi maqolalar bo‘yicha bosh muharrir, o‘rinbosarlar bilan fikrlashib turishgan. Tabiiyki, Umid Bekmuhammad maqolalarining Ozod Sharafiddinovdek teran mulohazali adabiyotshunos, shijoatli publisist nazariga tushishi haqida Habib Temirov, Rustam Jabborov, Faxriddin Kalonov singari birga faoliyat ko‘rsatgan ijodkorlar hanuzgacha ta’kidlab yurishadi. Qolaversa “O‘zing mening ulug‘lardan ulug‘imsan Vatanim” tanlovida sovrindor bo‘lishi, muallifning izlanishlari, publisistik mahorati tufayli edi.

Xulosa. Aynan bir yillik faoliyati davomida jurnalist “Qishloq hayoti” nashrida 120 dan ziyod maqolalar chop etdirishga erishdi. Oradan yillar o‘tsada ushbu maqolalar ta’sirchanligi, dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Bularning bari esa muallifning teran nazari, aqliy mushohadasi, dunyoqarashi kengligi va jamiyatdagi jarayonlarga, o‘tmishdagi voqeliklar, shaxslar faoliyatiga xolis va haqqoniy yondoshganligi tufaylidir. Shu boisdan ham Umid Bekmuhammadning “Qishloq hayoti”

dagi maqolalari “Hurriyat”, “Manzara”, “Mohiyat”, “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi” nashrlaridagi maqolalari, ocherklari singari matbuot tarixidan joy oldi. Umuman olganda gazetadagi maqolalarni biz ajratgan turkum holatida yanada teran ilmiy tadqiqot ishi qilish, o‘sha sondagi maqolalar bilan taqqoslab, Umid Bekmuhammad maqolalarining afzalligi, vaqt sinoviga bardosh bera olishiga amin bo‘lish mumkin. Shuningdek “Qishloq hayoti”dagi maqolalari ijodkorning publisistik mahorati va ijodiy faoliyatini falsafa doktorligi darajasida, davr, jamiyatdagi jarayonlar bilan taqqoslab tadqiq qilish imkonini beradi. Bu esa qisqa fursatdagi jurnalistlik faoliyati davrida o‘zidan boy ijodiy merosni manba sifatida qoldirishdek zahmatli ish, har qanday ijodkor uchun faxrlanarli jihatdir. Aynan shu boisdan ham uning ijodiy faoliyati matbuot tarixining yorqin sahifalarini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bekmuhammad U. “Navoiyning farzandi bo‘lganmi?” “Hayot” gazetasi, 2007-yil 22-fevral.
2. Bekmuhammad U. “Fransuzlar qoraqalpoqcha so‘zlashadi”. “Qishloq hayoti”. 2003-yil 12-avgust.
3. Bekmuhammad U. “Argentina o‘rdaklari Mo‘ynoqda “ “Qishloq hayoti”. 2003-yil 9-oktyabr.
4. Bekmuhammad U. “Bir yilda uch sahifa”. “Qishloq hayoti”. 2003-yil 15-iyul.

